

## BARLOS URUG‘INING TASHKIL TOPISHI VA SURXON VOHASIDA TARQALGAN HUDUDLAR TASNIFI

**Azamatov Asadbek Akmaljon o‘g‘li**

Termiz davlat universiteti

[asadbekazamato161@gmail.com](mailto:asadbekazamato161@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada buyuk o‘zbeklarning ajralmas bog‘ini bo‘lmish “Barlos” urug‘ining kelib chiqish tarixi va hozirda tarqalgan hududlar bo‘yicha atroflicha fikr yuritiladi. Eng so‘ngida urug‘ tarqalgan hududlarga tavsiflanadi.*

***Kalit so‘zlar:** Barlos, Sarkarda, Dehli, Qoracho‘r no‘yon, Amir Temur, Amir Joku, Tumanxon, Qobul, Qochuvli, Uzun, Sariosiyo, Xisor.*

Qadim surxon vohasi azaldan o‘zining etnik tarkibi xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Bu hududa O‘zbek elining to‘qson ikkita urug‘ vakillarining deyarli hammasini o‘zida jamlagan hudud hisoblanadi. Shu jumladan Surxondaryo viloyatining asosan shimoliy hududlarida tarqalgan “Barlos” urugi ham kelib chiqish tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Ushbu urug‘ga mansub bo‘lgan juda ko‘plab tarixiy shaxslar mavjud. Birgina Sohibqiron Amir Temur shaxsining o‘zi yuqoridagi jumlagi to‘laqonli misol bo‘ladi. Tarixchi sifatida shuni aytishim mumkinki har bir inson o‘zining nasl-nasabi kelib chiqish tarixini albatta bilishi shart. Barlos urug‘i, baralus, ballos – o‘zbek xalqining tarixiga kirgan qabilalardan biri. Barloslar haqida Rashididdinning “Oltin daftar” kitobida, Mo‘g‘ullarning “Maxfiy tarixi” kitobida ayrim ma’lumotlar uchraydi. Rashidinning yozishicha barloslar mo‘g‘ullarning Borjigun urug‘idan tarqalgan. Muallif yozishicha barlos etnonimi Chingizxon davridan beri mavjud bo‘lib, Chingizxon o‘g‘li Chig‘atoyga 4 000 kishilik qo‘shin ajratganda ularning ko‘pchiligi barlos urug‘idan bo‘lgan. Mo‘g‘ul

tilidan tarjima qilinganda barlos soʻzi “yoʻgʻon , “kuchli” deb tarjima qilinadi. Xiva xoni Abulgʻoziyxon (1603-1664 ) fikricha esa barlos soʻzi “sarkarda” degan maʼnoni beradi. Tumanxon nirun urugʻiga juda koʻp yillar podshoxlik qilgan boʻlib, 9 ta oʻgʻli bor edi. Tumanxoning bu oʻgʻillaridan urugʻlar paydo boʻldi. Shu oʻgʻillardan Qobul va Qochuvli nomli ikkitasi egizak edi. Sharofiddin Ali Yazdiyning “ Zafarnoma “ kitobida yozishicha tunlardan birida Qochuvli tush koʻrib, akasi Qobulxoning qoʻynidan birin ketin yulduzlar uchib chiqib ,biroz vaqt oʻtgandan soʻng soʻnadi. Ammo toʻrtinchi yulduz chaqnab butun olamni yoritib, yana bir necha porloq yulduzlar paydo boʻladi. Toʻsatdan uygʻonib tushi haqida oʻylaydi, yana uyquga ketib ,tushida endi oʻzing qoʻynidan yulduzlar uchib soʻnadi, ammo sakkizinchisi dunyoga nur-ziyo tarqatib turadi. Qochuvli tushi haqida otasi va akasiga aytadi. Otasi tush taʼbirini quyidagicha sharhlaydi; “ Birinchi tushning taʼbiri shuldirkim ,Qobul – avlodidan birin-ketin uch shahzoda taxtga oʻtiradi, toʻrtinchisi dunyoga keladi va mamlakatni egallaydi (yaʼni Chingizxon haqida gap boradi). Ikkinchi tushning taʼbiri Qochuvliga aytadirki “ Sening avlodingdan 7 kishi podshoga vositachilik qilgʻay , ammo sakkizinchisi jahongirlik qilgʻay va koʻp yurtlarni bosib olgʻay” (Bu yerda gap Amir Temur haqida ketoyotgandi). Shu tariqa Qobul va Qochuvli otasi oldida “ Xonlik taxti Qobulxonga boʻlsin, Shamshir va hukm yuritish Qochuvliga berilsin” – deb bir-birlariga soʻz beradilar. Ular “ Biz farzandlarimizga xam vasiyat qilamiz ,ular ham avloddan-avlodga ushbu qoidaga amal qilib borsinlar “ , - dedilar. Bu qarorni uygʻur yozuvida bitib qoʻydilar . Ikkalasi ham imzo chekdi va otasi Tumanxon oʻz tamgʻasini bosdi va uni xon xazinasiga topshirdi. Shundan boshlab Qochuvlining oʻgʻli Erdamchi – “ Barlos “ laqabi berildi. Shundan Erdamchi barlos urugʻining “barloslar” nomi bilan yuritdilar. Amir Temurning beshichi bobosi Qoracha –noʻyon davrida ham barloslar juda mashhur boʻldi. Oʻz oʻrnida Qoracha-noʻyon Chingizxonning oʻgʻli Chigʻatoyning eng ishonchli kishisi edi. Uning manbalarda 19 ta ogʻli boʻlib keyinchalik Eron va Turon hududiga tarqalib yashagan. Misol uchun Kesh (Qarshi) va Shahrizabz shahri hudulariga ogʻli Iyjil bahodirni yuboradi oʻzi esa Eron tarafga yoʻl oladi. Keyinchalik Sohibqiron siyosat maydoniga keladi va 1370-

yilgi g'alabdan so'ng davlat mustahkamlash uchun barlos urug'idan iborat gvardiya tuzadi. Sohibqironning buyul imperiyasi davrida barloslar keng miqiyosda tarqaldi. Xususan Eron, Iroq, Afg'oniston, Hindistonning Agra va Dehli hududida bir necha minglar barloslar ko'chib boradi.

Endi bevosita Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Uzun va Tojikiston Respublikasining Xisor viloyatidagi barloslarning borib qolishi XVI-asr boshlarida Movorounnahrni zabt etgan Shayboniyalar bilan bog'liq. Surxondaryo viloyati Sariosiyo (hozirgi Uzun tumani ham ushbu tuman tarkibida edi) tumanidagi barloslar mehmon bo'lganda qo'y go'shtining yonbosh (jonbosh) eti qo'yilgan. Manbalarda barlos urug'ini 7 ta og'ildan tarqalganligi aytiladi. Bular ; Tolibbachcha, Niyazbachcha, Kachalbachcha, Sherbachcha, Negmatbachcha, Oltibachcha (Tojikistonning Regar shahrida tarqalgan) Qozibachchadan iborat. Tom ma'noda barloslarning turlari desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi kunda Barloslar nafaqat boshqa o'zbek urug'lari hamda tojik millatiga mansub shaxslar bilan qorishuv jaroyonlari kechyabti. Bunga asosiy sabab quda-andachilik rishtalari. Bung misol qilib Uzun tumanida bir nechta mahalla xususan "Qarashiq", "Yangi Rozg'or", "Yangi Shahar" kabi mahallalar aholisi tarkibini asosan barloslar hamda tojik millatiga mansub kishilar tashkil etadi. Hozirgi kunda "barlos" etnonimi Surxon vohasi va tumanlardagi xususiy korxonalar, turli xil restoran hamda joy nomlariga qo'yilmoqda. Xususan Uzun tuman arxivlaridagi manbalarda aynan "Qarashiq" mahallasida "Barlosbobo" nomli fermer xo'jaligi ma'lum vaqt davomida faoliyat olib borganligi yozilgan.

Xulosa sifatida shuni aytishim mumkinki barlos urug'i vakillari har doim o'zbek urug'lari orasi ajralib turgan. Hozirda ham ular yetakchilar safida. Fikrimcha insoning kim bo'lib yetishishiga ham oz miqdorda bo'lsa uning urug'ini ahamiyati mavjud bo'ladi. Tarixchi sifatida shuni aytishim mumkinki, ushbu urug' ananalari hali uzoq vaqt davomida hali avlodan-avlodga o'tib boradi.

**FOYDALANILGAN ADABIOTLAR RO‘YHATI**

1. Abulg‘oziy Bahodirxon Shajarayi turk – T.: Cho‘lpon 1992. – B.32
2. Doniyorov .X. O‘zbek xalqining shajara va shevalari – T.: Fan 1968.- B-37
3. Norboyev N, O‘zbek elining qabila va urug‘lari haqida – T.: Toshkent,1997